XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 28 - dekabr VI-95-278-14-0-K/23 Toshkent shahar hokimligi

2024-yil uchun Toshkent shahar mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari va Byudjet kodeksining 99-moddasi hamda 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 25-dekabrdagi 01/30-2-10355-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi

QA R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni (keyingi o‘rinlarda Qonun deb yuritiladi) qabul qilinganligi;

Qonunning 6-ilovasiga muvofiq Toshkent shahar mahalliy byudjetining 2024-yil uchun daromadlari 9 163 330,3 mln so‘m, xarajatlari 9 677 188,9 mln so‘m miqdorida belgilanganligi;

Qonunning 7-ilovasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan Toshkent shahar byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdori 513 858,6 mln so‘m prognoz qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2024-yil uchun Toshkent shahrini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2025-2026-yillarga maqsadli mo‘ljallari 1-ilovaga, 2024-yil uchun Toshkent shahar mahalliy byudjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

2024-yil uchun Toshkent shahrining shahar byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga;

2024-yil uchun tumanlar byudjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha Toshkent shahar mahalliy byudjeti bilan tumanlar mahalliy byudjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Toshkent shahar bo‘yicha G‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

4. 2024-yil uchun tumanlar mahalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. 2024-yil uchun Toshkent shahrining shahar mahalliy byudjetining zaxira jamg‘armasi hajmlari 79 986,3 mln so‘m miqdorida belgilansin.

Tumanlar byudjetlarining 2023-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

6. 2024-yil uchun Toshkent shahrining shahar va tumanlar byudjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

7. Qonun bilan 2024-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan, mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

8. 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tumanlar byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan tushadigan tushumlar;

yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

b) Toshkent shahrining shahar byudjeti daromadlari Toshkent shahar mahalliy byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga o‘tkazilishi belgilangan tushumlar hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari), shuningdek, mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar tegishincha o‘tgan moliya yilining 1-iyul holatiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligidan olingan Toshkent shahri aholisi sonining respublika aholisi sonidagi ulushiga muvofiq;

yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;

davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushumlar;

jarimalar. Bunda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 4-apreldagi PQ–190-son qaroriga asosan tuman hokimliklari tomonidan o‘z hududlaridagi avtomobil yo‘llarida o‘rnatilgan yo‘l harakati qoidalari buzilishini qayd etuvchi maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan qoidabuzarliklar uchun undirilgan jarimalar byudjetdan tashqari hisob raqami orqali o‘tuvchi daromadlar tuman mahalliy byudjetlarida qoldiriladi;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi

tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) Toshkent shahrida 11 foizi;

foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) Toshkent shahrida 11 foizi o‘tkaziladi.

Agar qonunchilikda daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa mahalliy byudjetlarga o‘tkazilishi nazarda tutilgan daromad turlari tegishincha Toshkent shahrining shahar byudjetiga o‘tkaziladi;

d) quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar Toshkent shahar mahalliy byudjeti hamda tumanlar mahalliy byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

aylanmadan olinadigan soliq;

benzinni, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan daromad solig‘i teng ulushlarda;

davlat mulkini ijaraga berishdan tushadigan tushumlar.

9. Quyidagilar tegishincha Toshkent shahrining shahar byudjetidan, tumanlar byudjetlaridan moliyalashtiriladi:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshkent shahri, tumanlar Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari.

Quyidagilar Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtiriladi:

Toshkent shahrining umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari, maktabgacha ta’lim tashkilotlari, sog‘liqni saqlash muassasalari obyektlarini loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish), mukammal ta’mirlash va jihozlashga, shuningdek, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tadbirlari doirasida obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish), mukammal ta’mirlash hamda ta’mirlash ishlariga doir xarajatlar;

sud boshqaruvchilarining mehnatiga haq to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar;

kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlarni saqlash xarajatlari.

10. Toshkent shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (X.Shakirov), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ganiyev), Soliq boshqarmasi (Y.Nasimdjanov) tumanlar hokimliklari, mas’ul boshqarma va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon hamda kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjet prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha zaxiralarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

11. Toshkent shahar Soliq boshqarmasi (Y.Nasimdjanov) tumanlar Soliq inspeksiyalari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l

qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratish;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish;

Kadastr agentligining Toshkent shahar boshqarmasi (B.Tashxodjayev) bilan birgalikda Toshkent shahrida mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

12. Majburiy ijro byurosi Toshkent shahar boshqarmasi (A.Arziyev) Toshkent shahar Soliq boshqarmasi (Y.Nasimdjanov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rib borishni ta’minlasin.

13. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi shahar hududiy boshqarmasi (A.Razzoqov) Bo‘sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Toshkent shahar hududiy boshqarmasi bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra shaharda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar

tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini "e-ijro auksion" maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirsin.

14. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi shahar hududiy boshqarmasi (A.Razzoqov), Toshkent shahar Soliq boshqarmasi (Y.Nasimdjanov), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ganiyev) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida
50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (shu jumladan, ularning tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan)
2024-yilning 1-iyuliga qadar 2023-yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining
50 foizi miqdorida ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlar hisoblanadi hamda 2024-yilning 1-sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi byudjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

15. Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi (A.Tashpulatov), Toshkent shahar Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi (R.Jalilov), Majburiy ijro byurosi Toshkent shahar boshqarmasi (A.Arziyev), Toshkent shahar Adliya boshqarmasi (N.Muxammadiyev) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda byudjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

16. Davlat moliyaviy nazorati Toshkent shahar boshqarmasi, Maktabgacha va maktab ta’limi va sog‘liqni saqlash bosh boshqarmalarining ichki audit xizmatlari bilan birgalikda:

byudjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlarini kuchaytirish;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti har chorakda eshitib borilishini ta’minlasin.

17. Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga:

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etiladigan takliflarni belgilangan muddatlarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish va byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengashning qaror loyihasini ishlab chiqish;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatish, tavsiyalar berish va monitoring qilish;

mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

18. Toshkent shahar hokimining birinchi o‘rinbosari, tumanlar hokimliklari va tegishli boshqarmalar bilan birgalikda:

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashiga chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

19. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilinsin hamda Toshkent shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

20. Ushbu qaror 2024-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

21. Mazkur qaror ijrosining nazorati xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiya va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi M.Taxirov va Toshkent shahar hokimining birinchi o‘rinbosari X.Shakirov zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi **T. Matibayev**

Xalq deputatlari Toshkent shahar
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-95-278-14-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

2024-yil uchun Toshkent shahrini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2025-2026-yillarga maqsadli mo‘ljallari

T/r	Ko‘rsatkichlar	2024-yil uchun prognoz	Mo‘ljal	
			2025-yil	2026-yil
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd so‘m	210 726	245 608	283 021
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati, foizda	107.1	107.3	107.5
3.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	106.4	106.5	107.2
4.	Xizmat ko‘rsatish sohasi o‘sish sur’ati, foizda *(YAXM tarkibida)*	111.1	111.6	112.3
5.	Qurilish-pudrat ishlarini tashkil etish sur’ati, foizda	106.2	106.7	107.4

Xalq deputatlari Toshkent shahar
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-95-278-14-0-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun Toshkent shahar mahalliy byudjeti daromadlari prognozi

ming so‘m

T/r	Ko‘rsatkichlar	Summa
JAMI DAROMAD		**8 077 400 964.0**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	796 235 220
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 530 800 260
3	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	427 394 000
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 248 523 000
5	Yuridik shaxslarning yer solig‘i	712 648 000
6	Aylanmadan olinadigan soliq	711 945 039
7	Davlat boji	606 035 000
8	Jarimalar	618 559 000
9	Hususiylashtirish	29 200 000
10	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	394 364 831
11	Yig‘imlar	487 838 000
Jami daromadlar		7 563 542 350
12	2024 yil uchun respublika byudjetidan Toshkent shahar mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar	513 858 614
shular hisobiga:		
	- aroq	222 740 969
	- tamaki mahsulotlari	89 720 517
	- uyali aloqa kompaniyalari	201 397 128

Xalq deputatlari Toshkent shahar
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-95-278-14-0-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024-yil uchun Toshkent shahrining shahar byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

T/r	Ko‘rsatgichlar	Summa
Jami		**8 077 400 964**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 693 812 964
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	412 401 000
	Issiqlik energiyasini ishlab chiqaruvchilarga aholiga ko‘rsatilgan issiqlik ta’minoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qo‘llash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari	1 971 187 000
1	**Toshkent shahar hokimligi**	2 163 552 722
	joriy xarajatlar	2 163 552 722
	shu jumladan:	
	Toshkent shahar hokimligini saqlash xarajatlari	12 555 655
	Toshkent shahridagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	7 809 303
	Toshkent shahar hokimligining zaxira jamg‘armasi	79 986 296
	Xalk deputatlari Kengashi kotibiyati	522 352
	Tashqi qarz bo‘yicha to‘lovlar	232 567 728
	O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining kreditini qaytarish	234 884 400
	Chet el kreditlarini qoplash	12 994 827
	Nodavlat notijorat tashkilotlari	3 786 017
	Toshkent shahar hokimligining ijtimoiy moslashish markazi	127 673
	Jamoat transportining brutto shartnomasi asosida ko‘ratiladigan xizmatlar uchun subsidiyalar	1 000 000 000
	Toshkent metropolitenida aholiga cheklangan tariflarda xizmat ko‘rsatish natijasida ko‘riladigan zararni qoplash xarajatlari	575 700 768
2	**Toshkent shahar Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi**	71 528 226
	joriy xarajatlar	71 528 226
	shu jumladan:	
	Toshkent shahar Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasini saqlash xarajatlari	6 111 426

	Advokatlik xizmatlarining xarajatlari	22 000 000
	Davlat mukofotlarini to‘lash xarajatlari	8 416 800
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	35 000 000
3	**Soliq boshqarmasi**	50 382 611
	joriy xarajatlar	49 068 547
	Sud boshqaruvchi xarajatlari	1 314 064
4	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi**	3 856 243
	joriy xarajatlar	3 856 243
5	**Obodonlashtirish bosh boshqarmasi**	544 625 872
	joriy xarajatlar	544 625 872
6	**Maktabgacha va maktab ta’limi bosh boshqarmasi (umumiy ta’lim)**	485 995 834
	joriy xarajatlar	203 495 834
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	282 500 000
7	**Sog‘liqni saqlash bosh boshqarmasi**	2 113 509 240
	joriy xarajatlar	2 043 608 240
	Sog‘liqni saqlash tashkilotlari hamda boshqarmasi	41 920 910
	Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasiga transfertlar	2 001 687 330
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	69 901 000
8	**Madaniyat boshqarmasi**	88 532 128
	joriy xarajatlar	88 532 128
9	**Maktabgacha va maktab ta’limi bosh boshqarmasi (maktabgacha ta’lim)**	68 119 445
	joriy xarajatlar	8 119 445
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	60 000 000
10	**Qurilish boshqarmasi**	6 056 988
	joriy xarajatlar	6 056 988
11	**Adliya boshqarmasi**	10 984 511
	joriy xarajatlar	10 984 511
	Jumladan;	
	Adliya boshqarmasini saqlash xarajati	3 523 430
	Yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari	3 199 945
	FHDY bo’limlarini saqlash xarajati	4 261 136
12	**Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi**	3 966 144
	joriy xarajatlar	3 966 144
13	**Davlat arxivi boshqarmasi**	2 778 158
	joriy xarajatlar	2 778 158

14	**Yer resurslari va davlat kadastri boshqarmasi**	2 659 939
	joriy xarajatlar	2 659 939
15	**Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hududiy boshqarmasi**	13 952 561
	joriy xarajatlar	13 952 561
16	**G’aznachilik xizmati boshqarmasi**	7 431 050
	joriy xarajatlar	7 431 050
17	**Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi**	2 260 191 903
	joriy xarajatlar	145 811 303
	Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasini saqlash	2 617 703
	Ko‘p kvartirali uylardagi lift uskunalarini ta’mirlash va yangilash	143 193 600
	Issiqlik energiyasini ishlab chiqaruvchilarga aholiga ko‘rsatilgan issiqlik ta’minoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qo‘llash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari	1 971 187 000
18	**Transport boshqarmasi**	1 934 816
	joriy xarajatlar	1 934 816
19	**Turizm boshqarmasi**	2 492 652
	joriy xarajatlar	2 492 652
20	**O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi**	2 402 880
	joriy xarajatlar	2 402 880
21	**Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi**	1 425 563
	joriy xarajatlar	1 425 563
22	**O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining hududiy boshqarmasi**	2 320 512
	joriy xarajatlar	2 320 512
23	**Oila va xotin-qizlar boshqarmasi**	1 191 968
	joriy xarajatlar	1 191 968
24	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi**	19 869 931
	joriy xarajatlar	19 869 931
25	**Yoshlar siyosati va sport boshqarmasi**	56 358 233
	joriy xarajatlar	56 358 233
26	**Ekologiya va atrof-muhitni himoya qilish boshqarmasi**	6 184 320
	joriy xarajatlar	6 184 320
27	**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hududiy boshqarmasi**	157 134 251
	joriy xarajatlar	157 134 251
	Kadrlar tayyorlash xarajatlari	156 395 532
	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hududiy boshqarmasi	738 719
28	**Toshkent shahar saylov komissisiyasi**	73 804

	joriy xarajatlar	73 804
29	**O‘simliklar karantini inspeksiyasi**	9 018 902
	joriy xarajatlar	9 018 902
30	**Mahallabay ishlash va tabdirkorlikni rivojlantirish agentligining hududiy boshqarmasi**	1 403 674
	joriy xarajatlar	1 403 674
31	**Yoshlar ishlari agentligi hududiy boshqarmasi**	2 096 631
	joriy xarajatlar	2 096 631
32	**Issiqlik ta’minoti tizimi tashkilotlari xarajatlari**	110 000
	joriy xarajatlar	110 000
33	**Boshqa xarajatlar**	61 070 555
	joriy xarajatlar	61 070 555

Xalq deputatlari Toshkent shahar
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-95-278-14-0-K/23-son qaroriga
4-ilova

2024-yil uchun tumanlar byudjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari

foiz hisobida

T/r	Tumanlar nomi	Aylanmadan soliq	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasi qilishdan soliq	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslarning yer solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq
1	Shayxontohur tumani	18	44	10	11	100
2	Uchtepa tumani	18	76	50	40	100
3	Chilonzor tumani	18	39	15	10	100
4	Mirobod tumani	18	40	27	20	100
5	Mirzo Ulug‘bek tumani	18	50	19	15	100
6	Yakkasaroy tumani	18	10	14	12	100
7	Olmazor tumani	18	100	25	26	100
8	Yashnobod tumani	18	15	19	10	100
9	Sergeli tumani	18	9	8	9	100
10	Bektemir tumani	18	0	4	6	100
11	Yunusobod tumani	18	52	15	16	100
12	Yangihayot tumani	18	34	15	20	100

Xalq deputatlari Toshkent shahar
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-95-278-14-0-K/23-son qaroriga
5-ilova

2024-yil uchun tumanlar mahalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlarining prognozi

ming so‘m

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Daromadlar	Xarajatlar
	JAMI	**9 677 188 925.0**	**9 677 188 925.0**
1	Toshkent shahri	7 563 542 350.0	8 077 400 964.0
	Tartibga soluvchi transfertlar	513 858 614.0	0.0
2	Shayxontohur tumani	139 466 961.0	139 466 961.0
3	Uchtepa tumani	154 517 000.0	154 517 000.0
4	Chilonzor tumani	153 846 000.0	153 846 000.0
5	Mirobod tumani	120 121 000.0	120 121 000.0
6	Mirzo Ulug‘bek tumani	168 227 000.0	168 227 000.0
7	Yakkasaroy tumani	100 504 000.0	100 504 000.0
8	Olmazor tumani	154 485 000.0	154 485 000.0
9	Yashnobod tumani	161 928 000.0	161 928 000.0
10	Sergeli tumani	125 483 000.0	125 483 000.0
11	Bektemir tumani	67 068 000.0	67 068 000.0
12	Yunusobod tumani	174 544 000.0	174 544 000.0
13	Yangihayot tumani	79 598 000.0	79 598 000.0

Xalq deputatlari Toshkent shahar
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-95-278-14-0-K/23-son qaroriga
6-ilova

2024-yil uchun Toshkent shahrining shahar va tumanlar byudjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

ming so‘m

T/r	Tumanlar va shaharlar nomi	Miqdor
	JAMI	**38 000 000**
1	Toshkent shahri	31 718 000
2	Shayxontohur tumani	548 000
3	Uchtepa tumani	607 000
4	Chilonzor tumani	604 000
5	Mirobod tumani	472 000
6	Mirzo Ulug‘bek tumani	660 000
7	Yakkasaroy tumani	395 000
8	Olmazor tumani	606 000
9	Yashnobod tumani	636 000
10	Sergeli tumani	493 000
11	Bektemir tumani	263 000
12	Yunusobod tumani	685 000
13	Yangihayot tumani	313 000